



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari

2-son (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 2 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .....	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK .....	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN .....	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .....	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .....	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI .....	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA .....	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .....	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .....	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .....	79-84

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH .....	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ	
УЗБЕКИСТАН .....	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ	
XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI .....	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	
YO'LLARI .....	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI	
OSHIRISH YO'LARI .....	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI .....	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA .....	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI	
TAKOMILLASHTIRISH .....	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI .....	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	
MASALALARI .....	161-166
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING	
ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI .....	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI .....	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT	
TARAQQIYOTINING ASOSI .....	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE	
IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" .....	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI .....	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY	
ASOSLARI VA AHAMIYATI .....	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .....	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI .....	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .....	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .....	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .....	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .....	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI .....	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .....	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .....	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA .....	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI .....	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI .....	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI .....	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI .....	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI .....	282-285

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH .....	290-296
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI .....	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" .....	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA .....	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI .....	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI .....	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES .....	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI .....	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING .....	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) .....	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI .....	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI .....	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI .....	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI .....	379-385
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА .....	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI .....	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH .....	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI .....	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI .....	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI .....	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI .....	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI .....	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI .....	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA .....	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS .....	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ .....	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI .....	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR .....	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI .....	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI .....	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI .....	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ .....	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI .....	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI .....	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ .....	537-542
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH .....	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI .....	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA .....	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ .....	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI .....	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI .....	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI .....	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI .....	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI .....	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI .....	626-629

**Received:** 25 January 2025

**Accepted:** 1 February 2025

**Published:** 10 Febrary 2025

*Article / Original Paper*

## **NEW INDEPENDENT STATES OF CENTRAL ASIA IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL RELATIONS**

**Ibragimov Kudrat**

Senior Lecturer of the Department of General Sciences and Culture,  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** The article analyzes the formation of independent states in Central Asia after the collapse of the Soviet Union, the difficulties of the first years of independence, and the processes of forming the foundations of statehood. In addition, an important analysis is given of the path chosen by the countries of the region in the first years of independence, in particular, the directions of domestic and foreign policies and political strategies.

**Keywords:** Central Asia, region, Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, independence, politics, Soviet Union.

## **XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI**

**Ibragimov Kudrat,**

Toshkent davlat yuridik universiteti,  
Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasi katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sovet ittifoqi parchalangandan so'ng, Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi, mustaqillikning ilk yillardagi qiyinchiliklar va davlatchilik asoslarini shakllanish jarayonlari tahlil etilgan. Bundan tashqari, mustaqillikning ilk yillarda mintaqa davlatlari tomonidan tanlangan yo'l, xususan, ichki va tashqi siyosat yo'naliishlari, siyosiy strategiyalar borasida muhim tahlillar mavjud.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, mintaqa, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, mustaqillik, siyosat, Sovet Ittifoqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N40>

Markaziy Osiyo mintaqasi Yevrosiyo qit'asining markazida joylashgan bo'lib, uni muhim tranzit va strategik mintaqaga aylantiradi. Mintaqa shimolda Rossiya, sharqda Xitoy, janubda Eron va Afg'oniston, shuningdek, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharqning qator davlatlari kabi global kuchlar bilan chegaradosh. Bu joylashuv boy tabiiy resurslar bilan uyg'unlashib, Markaziy Osiyoni xalqaro siyosat va iqtisodiyotning asosiy bo'g'iniga aylantiradi.[1] Bundan tashqari, Markaziy Osiyo turli madaniyatlar o'rtasidagi muhim ko'prikdir. Tarixda bu hudud Buyuk Ipak yo'lining muhim qismi – Sharqni G'arb bilan bog'lovchi savdo yo'llari tarmog'i bo'lgan.

Sovet Ittifoqining 1991-yilda parchalanishi jahon siyosatida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Markaziy Osiyoning beshta respublikasi – O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston mustaqillikka erishib, xalqaro munosabatlarning yangi subyektiga aylandi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, mintaqa mamlakatlari o'zlarining davlat institutlarini yaratish, milliy o'ziga xoslikni shakllantirish va bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurati

bilan yuzma-yuz keldi. Bunda asosiy birlamchi maqsadlar suverenitet va mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatda barqarorlikni ta'minlash hamda xalqaro e'tirof va xorijiy hamkorliklarni yo'lga qo'yish edi.[2]

**O'zbekiston** Sovet Ittifoqining boshqa respublikalari singari 1991-yilda parchalanib ketganidan so'ng yangi siyosiy dunyoning bir qismiga aylandi. O'sha davrda respublika mintaqadagi eng yirik respublikalardan biri bo'lib, aholining ko'pligi, qishloq xo'jaligi va sanoatning rivojlangan tarmoqlariga ega edi. Mustaqillikdan keyingi asosiy vazifalaridan biri hokimiyat barqarorligi va uzlusizligini ta'minlaydigan siyosiy tizimni yaratish edi. 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasi davlat qurilishi jarayonidagi muhim qadam bo'lib, mamlakatimizning prezidentlik boshqaruv shakliga ega suveren davlat maqomini mustahkamladi. Konstitutsiyada prezidentga keng vakolatlar belgilandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng duch kelgan asosiy muammolardan biri iqtisodiyotni o'zgartirish bo'ldi. Iqtisodiyotni boshqarishning sovet tizimi markaziy rejalashtirishga qaratilgan bo'lib, bozor munosabatlariga o'tish ko'plab qiyinchiliklarga to'la edi.

O'zbekistonning tashqi siyosatdagi birinchi vazifalaridan biri uning mustaqilligini xalqaro maydonda tan olish edi. O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tashkilotlarga a'zo sifatida inson huquqlari va xavfsizligi bilan bog'liq xalqaro normalarni shakllantirishda faol ishtirok etdi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida mamlakat tashqi siyosati ko'p vektorli yo'nalish sifatida qo'shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlarni saqlash, Rossiya, Xitoy, BMT kabi dunyoning qudratli davlatlari hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlarni rivojlantirdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda O'zbekiston muhim iqtisodiy va siyosiy sherik bo'lib qolgan Rossiya bilan hamkorlikni davom ettirishga intildi. Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik Rossiya-O'zbekiston munosabatlarining muhim jihatiga aylandi. 1992-yilda O'zbekiston Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotiga (ODKB) qo'shildi. Biroq mintaqaviy xavfsizlik va integratsiya masalalariga yondashuvlardagi farqlar tufayli Rossiya bilan munosabatlar ham qiyinligicha qoldi.[3]

1990-yillarda O'zbekiston Xitoy bilan munosabatlarni rivojlantirish, ayniqsa, energetika, transport va savdo sohalarida manfaatdor edi. O'zbekiston Xitoya muhim iqtisodiy sherik va salohiyatli investor sifatida qaradi. Shuningdek, O'zbekiston G'arb davlatlari, xususan, AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarni rivojlantirishga intildi. G'arb O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi muhim davlat, mintaqaviy jarayonlarga ta'sir o'tkaza oladigan mamlakat sifatida qaradi. Biroq G'arb bilan munosabatlar O'zbekistonning ichki siyosiy muammolari, jumladan, inson huquqlari va demokratlashtirish masalalari tufayli murakkablashdi.

2000-yillar boshida O'zbekiston Rossiya bilan an'anaviy aloqalarni mustahkamlash va boshqa qudratli davlatlar, birinchi navbatda, Xitoy va AQSH bilan hamkorlikni kengaytirish vektorli tashqi siyosat yo'nalishini davom ettirdi. Bu davrda O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor vazifalaridan biri milliy va mintaqaviy darajada xavfsizlikni ta'minlashdan iborat bo'ldi. 2001-yil 11-sentyabr voqealaridan keyin O'zbekiston terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda AQSH va xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlik qildi.[4]

2016-yilda Islom Karimov vafotidan so'ng O'zbekiston tashqi siyosatida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Yangi prezident Shavkat Mirziyoyev tashqi siyosatni modernizatsiya qilish va diplomatik sa'y-harakatlarni faollashtirish kursini ilgari surdi. Xususan, Shavkat

Mirziyoyev tashqi siyosatining dastlabki qadamlaridan biri qo'shnilar bilan munosabatlarni yaxshilash bo'ldi. Bu Markaziy Osiyodagi vaziyatni barqarorlashtirish uchun muhim bo'lib, mintaqalari o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqi, Xitoy va AQSH bilan tashqi aloqalarini faolroq rivojlantira boshladi. Shu bilan birga, sarmoyaviy muhitni yaxshilash, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, jahon iqtisodiy-siyosiy forumlarida faol ishtirok etishga alohida e'tibor qaratildi. Shavkat Mirziyoyev iqtisod va inson huquqlari sohasida islohotlar tashabbuskori sifatida G'arb bilan munosabatlarni sezilarli darajada yaxshiladi va mamlakatga nisbatan xalqaro tanqidlarni kamaytirdi. Bunday yangi yondashuv O'zbekiston tashqi siyosatining muhim qismi bo'lib, xalqaro tashkilotlarda yanada kengroq ishtirok etish, savdo-siyosiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Sovet Ittifoqining eng yirik respublikalaridan biri bo'lgan **Qozog'iston** 1991-yil 16-dekabrda qiyin sharoitlarda mustaqillikka erishdi. Qozog'iston yillar davomida shakllangan sovet siyosiy tizimining vorisi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlari, xususan, ko'plab etnik rusiy zabon aholi, etnik va madaniy guruhlarning xilma-xilligi, neft, gaz, ko'mir kabi muhim iqtisodiy va tabiiy resurslarga ega edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Qozog'iston barqaror davlat institutlarini yaratish, iqtisodiyotni isloh qilish va xalqaro maydonda o'z o'rnnini yaratish zarurati bilan to'qnash keldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Qozog'istonda prezidentlik respublikasi tizimi qabul qilindi. Bu esa mamlakatda hokimiyatni birlashtirish va barqarorlikni ta'minlash zarurati bilan bog'liq edi. [5] Nursulton Nazarboyevning Qozog'istonning birinchi prezidenti etib saylanishi xalq yetakchisi sifatida davlatning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynadi. Qozog'iston kuchli prezidentlik hokimiyati yo'lini tanladi.

1993-yilda prezidentlik boshqaruvi shakli mustahkamlangan, shuningdek, davlat boshqaruvi asoslari, jumladan, hokimiyatlar bo'linishi belgilab qo'yilgan Konstitutsianing qabul qilinishi muhim voqeа bo'ldi. Konstitutsiya Qozog'istonning suveren va mustaqil davlat sifatida belgilab berib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatladi hamda siyosiy tizimni rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratdi. [6]

Mustaqillikning birinchi o'n yilligi davomida Qozog'iston qo'shni mamlakatlardagi iqtisodiy qiyinchiliklar va beqarorlik sharoitida siyosiy barqarorlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan kuchli prezident hokimiyati modeliga amal qildi.[7] Prezident Nazarboyev keng vakolatlarga ega bo'lib, bu unga islohotlarni davom ettirish va davlat siyosatining asosiy masalalari bo'yicha muhim qarorlar qabul qilish imkonini berdi. Ushbu model ko'plab fuqarolar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Chunki tartibni saqlash va iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etishni kafolatladi.

2007-yilda muhim konstitutsiyaviy islohot amalga oshirilib, parlament va hukumat vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Islohot siyosiy tuzilmani takomillashtirish va hokimiyatlar taqsimotining yanada muvozanatlari tizimini yaratishga qaratilgan edi. Shundan so'ng Qozog'istonda ko'ppartiyaviylik tizimiga yo'l qo'yildi. Bu esa siyosiy raqobatning bosqichma-bosqich rivojlanishi va yangi partiyalar va tashabbuslar uchun siyosiy makon ochilishini anglatardi.

2019-yilda Nursulton Nazarboyev iste'foga chiqqanidan so'ng Qozog'istonda muhim siyosiy o'zgarishlar ro'y berdi. Bu mamlakatni yanada rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni

ochdi. Siyosiy modernizatsiya doirasida qabul qilingan islohotlar parlament rolini oshirish va siyosiy jarayonlarning shaffofligini oshirish imkonini berdi.

Qozog'iston mustaqillikka erishgach, keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish zaruriyatiga duch keldi. Qozog'iston iqtisodiyoti sanoat va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan bo'lsa-da, Sovet iqtisodiyotiga juda bog'liq edi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki qadamlaridan biri davlat korxonalarini xususiyashtirish va bozor mexanizmlarini joriy etish bo'ldi. Xususiyashtirish bir necha bosqichda amalga oshirildi va qiyinchiliklarga qaramay, bu chora-tadbirlar iqtisodiyot tarkibida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarda Qozog'istonning iqtisodiy rivojlanishini belgilab bergan muhim omillardan biri uning tabiiy boyliklari edi. Mamlakat katta neft va gaz zaxiralari, shuningdek, ko'mir, oltin, mis va uran kabi boshqa tabiiy resurslarga ega. Qozog'iston jahon energetika bozorining muhim ishtirokchisiga aylandi. Bu esa iqtisodiyot va infratuzilmani rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar oqimini ta'minladi.[8]

Qozog'istonning mustaqillikka erishgandan keyingi tashqi siyosati davlat strategiyasining muhim jihatiga aylandi. Qozog'iston ham qo'shni davlatlar, ham tashqi kuchlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga intilib, ko'p vektorli yondashuvni tanladi. Xususan, Qozog'iston Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi va Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti kabi tashkilotlar orqali Rossiya bilan yaqin aloqalarini davom ettirdi. Bu munosabatlar Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Shuningdek, Xitoy bilan strategik hamkorlikni rivojlantirib, "Bir makon, bir yo'l" loyihasida faol ishtirok orqali Xitoy va Yevropa o'rtaisdagi transport yo'laklarini ta'minladi. Qozog'iston G'arb bilan aloqalarni, ayniqsa, energetika va savdo sohalarida mustahkamladi, tinchlik va xavfsizlikni saqlash bo'yicha xalqaro tashabbuslarda ham faol ishtirok etdi.

1991-yilda mustaqillikka erishgandan so'ng, **Qirg'iziston** ham postsoviet hududidagi boshqa davlatlar singari nafaqat ichki islohotlarni, balki tashqi siyosatni rivojlantirishni ham o'z ichiga olgan yangi davlat tuzilmasini shakllantirish zarurati bilan duch keldi. Sovet Ittifoqi parchalanib, 1991-yil 31-avgustda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng Qirg'iziston tashqi iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni qayta belgilashga majbur bo'ldi. Milliy suverenitetni mustahkamlash, strategik sheriklik munosabatlarini shakllantirish va xavfsiz tashqi iqtisodiy muhitni yaratish eng muhim vazifalardan edi.

Mamlakat Markaziy Osiyoning qo'shni davlatlari – Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston bilan aloqalarni mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Qirg'izistonning birinchi prezidenti Asqar Akayev boshchiligidagi turli davlatlar, jumladan, Rossiya, Xitoy, AQSh, Turkiya va mintaqaning boshqa davlatlari bilan yaxshi munosabatlarni saqlashni o'z ichiga olgan ko'p vektorli strategiya tanlandi. Qirg'izistonning bu davrda tashqi siyosati betaraflik va diplomatik moslashuvchanlik tamoyillariga asoslangan edi.

Qirg'iziston muhim siyosiy va iqtisodiy hamkor bo'lib qolgan Rossiya bilan munosabatlarni rivojlantirishga, shuningdek, AQSH va Yevropa Ittifoqi kabi G'arb davlatlari bilan aloqalarni davom ettirishga faol intildi. Rossiya bilan madaniy va tarixiy aloqalarni saqlab qolish, shuningdek, uning energiya resurslari va savdosiga iqtisodiy qaramlik tashqi siyosatning muhim jihatiga aylandi. Bu davrda Qirg'iziston ham Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Savdo Tashkiloti va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti kabi turli xalqaro tashkilotlarda ishtirok eta boshladi.

Qirg'iziston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari qatoriga Markaziy Osiyoda ekstremizm, narkotik moddalar savdosi va terrorchilik faoliyati tahdidlari fonida uning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, ichki barqarorlikni mustahkamlash va ushbu tahdidlarning oldini olish bo'yicha mintaqaviy sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash kiradi.

2010-yilgi inqilobdan keyin Qirg'iziston xalqaro siyosatning faol ishtirokchisiga aylandi. Qirg'iziston iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni hisobga olgan holda Rossiya, Xitoy, AQSH va Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarda muvozanatni topishga harakat qilmoqda. 2015-yilda Qirg'iziston Yevroсиyo iqtisodiy ittifoqiga qo'shildi va bu Rossiya, Qozog'iston, Armaniston va Belarus bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Xitoy esa "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida Qirg'izistonning asosiy iqtisodiy hamkorlaridan biriga aylandi. Qirg'iziston Xitoy bilan infratuzilma loyihamalarida, jumladan, yo'llar va transport yo'laklarida faol ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, AQSH bilan xavfsizlikni ta'minlash, jumladan, aksilterror amaliyotlarida ishtirok etish borasida hamkorlik olib bormoqda.[9]

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin **Tojikiston** dastlab mamlakat siyosiy beqarorlik, fuqarolar urushi (1992-1997) va davlat institutlarini qurishdagi qiyinchiliklarga duch keldi. 1997-yil oxirida tinchlik shartnomasi imzolangandan keyin ichki siyosiy muvozanatni o'rnatish mumkin bo'ldi. 1994-yilda esa Tojikiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinib, davlat tuzilishining asosiy tamoyillarini belgilab berdi.

Tojikistonning tashqi siyosati mustaqillikka erishganidan so'ng bir qancha o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu ham ichki siyosiy dinamikani, ham xalqaro xavfsizlik talablarini aks ettirdi. Tashqi siyosatning asosiy vektorlari mintaqaviy hamkorlik va xavfsizlik, qo'shni davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikka yo'naltirildi.

Tojikiston Shanxay hamkorlik tashkiloti, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti hamda boshqa mintaqaviy tuzilmalar doirasida faol ish olib bordi. Ekstremizm va narkotrafik xavfini hisobga olgan holda tojik-afg'on chegarasida xavfsizlikni ta'minlash tashqi siyosatning muhim yo'nalishiga aylandi.[10] Mamlakat tashqi siyosatidagi asosiy davlatlar Rossiya, Xitoy, O'zbekiston, Afg'oniston va Qirg'iziston bo'lib, Rossiya harbiy va iqtisodiy hamkorlik bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Xitoy bilan iqtisodiy hamkorlik, birinchi navbatda, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasida avtomobil va temir yo'l qurilishi kabi infratuzilma loyihamalar orqali ham rivojlanmoqda.

Tojikistonning mustaqillikka erishgandan keyingi iqtisodiy siyosati qoloq bo'lgan iqtisodiyotni tiklash va xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga qaratilgan edi. Energetika sohasini, xususan, Tojikiston salmoqli salohiyatga ega gidroenergetikani rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ldi. Mamlakat Markaziy Osiyoda yirik elektr energiyasi ishlab chiqaruvchisi bo'lib, ko'plab loyihamalar suv va energetika resurslarini rivojlantirishga qaratilgan.

Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin **Turkmaniston** 1991-yil 27-oktyabrdagi o'z mustaqilligini rasman e'lon qildi. Yangi hukumatning dastlabki qadamlaridan biri 1992-yilda Turkmaniston Konstitutsiyasining tasdiqlanishi bo'lib, unda davlat tuzilishi asoslari, boshqaruv shakli (prezidentlik respublikasi) va fuqarolarning huquqlari belgilab qo'yildi.

Turkmaniston siyosiy hayotida uzoq vaqt davomida asosiy shaxs 1991-yilda mamlakatning birinchi prezidenti bo'lgan va 2006-yilda vafotigacha hokimiyatda qolgan Saparmurod Niyozov (Turkmanboshi) edi. Uning tashqi siyosati nisbatan neytral bo'lib, Turkmanistonni turli tashqi subyektlar o'rtaSIDA muvozanatni saqlashga intilayotgan davlat sifatida tavsifladi.

1995-yilda Turkmaniston xalqaro maydonda o'zining betarafligini rasman e'lon qilgan va BMT tomonidan 1995-yilda tan olindi. Neytrallik mamlakat tashqi siyosat strategiyasining asosiga aylandi. [11] Bu maqom Turkmanistonga harbiy mojarolarda qatnashmaslik va turli davlatlar bilan tinch diplomatik munosabatlarni rivojlantirish imkonini berdi.

Yevrosiyo hududidagi geosiyosiy jarayonlarni o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari, xususan, mazkur hududning geosiyosiy roli hamda mamlakatlar tashqi siyosatini tushunishning nazariy jihatlari, shuningdek, xalqaro munosabatlar tizimida Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlari masalasini tadqiq etgan holda quyidagi xulosalarni keltirib o'tish mumkin:

Birinchidan, Yevrosiyo makoni zamonaviy xalqaro munosabatlarda asosiy o'rinni egallab, global geosiyosat, iqtisodiyot va xavfsizlikka ta'sir ko'rsatadi. Rossiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Turkiya va boshqa davlatlar, strategik resurslari bu mintaqani xalqaro tizimning muhim omiliga aylantiradi. Xalqaro munosabatlar nazariyasi Yevrosiyo siyosatini o'rganar ekan, ko'p qutblilik, mintaqaviy integratsiya va kuchlar muvozanatining ahamiyatini ta'kidlaydi. Yevrosiyo qit'asi buyuk davlatlar manfaatlari to'qnashuvi maydoni bo'lib qolmoqda. Bu esa uning geosiyosiy rolini global muammolar va jahon miqyosidagi o'zgarishlar kontekstida ayniqsa dolzARB qiladi.

Ikkinchidan, Yevrosiyo makonidagi davlatlarning tashqi siyosatini tushunishning nazariy jihatlari xalqaro munosabatlarga realistik, liberal va konstruktivistik yondashuvlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli va ko'p qirrali yondashuvni ifodalaydi. Mintqa davlatlari o'zlarining geosiyosiy ahamiyatini hisobga olib, ko'pincha ko'p vektorli tashqi siyosat olib boradi. Rossiya, Xitoy va AQSH kabi yirik jahon davlatlari manfaatlarini muvozanatlashtirishga harakat qiladilar.

Uchinchidan, Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin vujudga kelgan Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlari jahon siyosiy xaritasini o'zgartirishda katta rol o'ynadi. Bu davlatlar mustaqillikning dastlabki yillarida qiyinchiliklarga qaramay, davlatchilikni mustahkamlash, mintaqada barqarorlikni saqlash va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga intildi. Ularning tashqi siyosati Rossiya, Xitoy va G'arb davlatlari manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyo xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etib, jahon hamjamiyati bilan chuqurroq iqtisodiy va siyosiy hamkorlikka intilib, xalqaro munosabatlardagi o'z rolini rivojlantirishda davom etmoqda.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Яковлева, Т. В. (2022). Геополитические реалии Центральной Азии в XXI веке. Бишкек: Академия международных отношений.
2. Finkel, E. (2003). The United States and Central Asia: The Soviet Legacy and the Geopolitical Importance of the Region. Journal of International Affairs, 57(1).
3. International Crisis Group (2018). Central Asia: In Need of a Security Policy. Brussels: International Crisis Group.
4. Cooley, A. (2008). Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia. Oxford University Press.
5. Мухамедиев, Т. Н. (2017). Государственное строительство в Казахстане: проблемы и пути решения. Алматы: КазНУ.
6. Александров, В. В. (2015). Политические процессы в Казахстане: от независимости к устойчивому развитию. Москва: ВШЭ.

7. Назарбаев, Н. (2010). Третья модернизация Казахстана: глобальные вызовы, реформы, развитие. Астана: Жібек Жолы.
8. Капканысова, Д. (2018). Экономическое развитие Казахстана после 1991 года. Ташкент: Институт экономических исследований.
9. Cornell, S. E. (2017). Central Asia and the World: The International Politics of the Region. University of California Press.
10. Дьяков, А. В. (2021). Международная безопасность в Центральной Азии: проблемы и перспективы. Алматы: Центр стратегических исследований.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 2 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).